




AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
Tarix fakulteti 202 -MIG' guruh talabasi
Sultonova Niyozjonning

KURS ISHI

**Mavzu: Amir Temur Temuriylar davrida ma'naviyat va
ma'rifat rivoji**

Kurs ishi raxbari:

Sheripov U.

- 
- Reja:
 - I. Kirish
 - II. Asosiy qism
 - 1. Amir Temur davlatining tashkil topishi, harbiy yurishlari
 - 2. Davlatni idora etishda “Temur tuzuklari”ning o`rni va uning mustaqillik davridagi ahamiyati.
 - 3. Mirzo Ulug’bek- ilm fan homiysi
 - 4. Bobur va boburiylarning ilm fan rivojiga qo’shgan hissalari
 - Xulosa.
 - Foydalanilgan adabiyotlar.
 -

• **Kirish.**

- Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan “Tuzuklar”ni o’qisam, xuddiki o’zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo’laman” – degan Islom Karimov.
- Mustaqil O’zbekiston taraqqiyot yo’lida olg’a qadamlar bilan borar ekan, bunda uchragan har xil qiyinchiliklarni yengib, muvaffaqiyatlarga erishganda beixtiyor qadimiy xalqimiz bosib o’tgan shonli, tarix zarvaraqlariga bitilgan o’tmishimizning yorqin sahifalaridan o’rin olgan o’zbek davlatchiligining Amir Temur davrini eslab, o’zimizning kim ekanligimizni va ajdodlarimizga munosib voris bo’layotganimizdan faxr hissini tuyamiz. Amir Temur davlat va jamiyat boshqaruvida har doim amal qilgan “Rosti rusti” tamoyili bugungi kunga kelib O’zbekiston Konstitutsiyasining asosiy qoidalaridan biriga aylandi: 14-modda. Davlat o’z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko’zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi.
- Xalqimiz doimo ma’naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug’ tuyg’u uning hayotida yillar, asrlar o’tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma’naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g’ayrat va ilhom olib, o’zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

- **Mavzuning dolzarbligi**

- O'z kasbini yaxshi egallagan chuqur bilimli, mutaxassis kadrlar tayyorlash va ularning zamonaviy bilimlar asosida ta'lim olishi mustaqil davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot omillari, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalaridagi islohotlarning jadallashuvi umuman bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish ko'p jihatdan yuksak malakali, ma'naviy-axloqiy pok kadrlarga bog'liq. Milliy go'ya Ma'naviyat asoslari va Huquq ta'limi tizimida Buyuk bobokalonlarimiz mard, jasur Amir Temur va temuriylar tarixda o'zlaridan sezilarli iz qoldirgani hech kimga sir emas. Ular yaratgan adabiyot durdonalari va ularda yoritilgan ma'naviyat masalalari mavzusi ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi, chunki bu fazilatlarlar xalqimizning asrlar davomida sayqal topib kelayotgan milliy ma'naviy qadriyatlaridir.

- **O'rganilganlik darajasi**

- Mavzu bo'yicha qadimdan va bugungi kunda ham ko'plab asarlar ilmiy qo'llanmalar yozilgan va ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va boshqa ma'lumotlar to'plangan. Dastlab Eronning Kirmonshoh yaqinidan topilgan bu obidalarni o'qishning iloji bo'lmagan va bu runik ya'ni sirli yozuvlarni o'qishga Vamberi muvaffaq bo'lgan. Jumladan bu mavzuning o'rganilishini takomillashtirishda va o'quv adabiyotlarini yozishda olimlaridan Sharafiddin Ali Yazdiy, Bo'riboy Axmedov, Azamat Ziyo kabi bir qator olimlar asarlari metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Shu asosda mavzuni yoritishda diplom va ilmiy ishlardan foydalanilgan. Undan tashqari axborot, gazeta, jurnallar va internet materillaridan foydalanilgan.

- **O'rganishdan maqsad.**

- Ma'lumki insoniyat o'zining qadimgi tarixiga xamma vaqt qiziqish bilan qaraydi. Bu davrni biz qadimgi davr deb ataymiz. Mavzuni o'rganishdan maqsad ushbu mavzuda o'zbek xalqining qadimgi va o'rta asrlardagi madaniyati , ma'naviyati, milliy fazilatlari , urf odatlari an'analari va asrlar davomida qon-qoniga singib ketgan turmush tarzi , ma'naviyati masalalari va ularning qay darajada madaniyatli ekanligini o'rganish zarurati dolzarb mavzu hisoblanadi. Prezidentimiz ta'rifiga ko'ra tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emasligini tushunish va tushuntirish lozim.



Amur-Temur Kesh hokimi
Tarag`aybekning o`g`li, Kesh shahri
yaqinidagi Xoja Ilg`or qishlog`ida
1336 yil 9 aprelda (736 hijriyning 25
sha'bonida) tug`ilgan.

Amir Temurning ota-onasi haqida
gap ketganda, otasi Muhammad
Tarag`ayni Chingizxonning harbiy
sarkardalaridan biri Qorachor
no`yonning nevarasi Burkulning o`g`li
deydilar. Shu o`rinda qayd etib o`tish
joizki, Chingizxon harbiylarining ko`p
qismi turkiylardan edi.




- Amir Temur-bizning sha'n-shavkatimiz, g`urur iftixorimizdir. Amir Temur -xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir".
- Islom Karimov.





- Amir Temur mamlakatda qatiqqo'l hokimiyat o'rnatish zarurligini yaxshi tushunardi. Negaki, ko'chmanchi mug'ul-turk qabilalaridan jaloir, barlos, sulduz va boshqalarning o'zboshimcha boshliqlarini itoatda saqlab turish oson emas edi. Shu maqsadda mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etishga kirishadi. U o'ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida barlos qabilasidan maxsus harbiy qism tashkil etib, ularga katta imtiyozlar beradi.



➤ Amir Temur o'z davlati hokimiyatini mustahkamlashda islom diniga tayandi. Islom namoyandalari uni qo'llab-quvvatladi. Mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etgan dehqonlar va shahar aholisi – tijoratchilar, hunarmandlar sohibqironning davlatni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlarini ma'qulladilar.



Qadimiy Turkistonu
Turonzaminning buyuk farzandi
Temur tarix sahnasiga kelgach,
qariyb bir yarim asrlik mug`ullar
hukmronligi va feodal
tarqoqlikka barham berib,
o`zining qudratli imperiyasini
vujudga keltirdi.

- Uning davlati ijtimoiy -siyosiy jarayonda juda tez ko`zga tashlandi. Eng muhimi osoyishtalik o`rnatilib katta sarhadda yangi bir rivojlanish davri boshlandi. Temur davlati tarixiga butun jahon jiddiy e'tibor berayotganligining sababi ham shundadir.

- Amir Temur davlat ishlarini yurgizishda
- 4 narsaga doim amal qildi. Bular:
- 1. Kengash.
- 2. Mashvaratu maslaxat.
- 3. qat'iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik.
- 4. Extiyotkorlik.

Amir Temur hukmdor uchun qo'yidagi o'n ikki xislat zarurligini va bu xislatlarning birortasiga amal qilinmasa saltanat ishlariga putur yetishi mumkinligini tarixiy misollar bilan isbot qilib bergan edi.





➤*Temur zamonida me'morchilik va obodonlashtirish ishlari ayniqsa rivoj topdi, dunyoda tengi yo`q obidalar yaratildi. Samarqandda Go`ri Amir, Ishratxona maqbaralari, Bibixonim yodgorligi, Jome masjidi, Shahrisabzdagi Oqsaroy , "Dorut Tilovat", "Ko`k Gumbaz", "Piru Murshid", "Shamsuddin Kulol" maqbaralari shular jumlasidandir. Ular juda katta boyliklar, mashaqqatli mehnatlar evaziga bunyod etilgan bo`lib, Sohibqiron harbiy yurishlarida erishgan zafarlari bilan bog`liqdir. U har bir g`alabasini birorta obida qurish bilan abadiylashtirardi. Chunonchi, Xorazmni Movarounnahrga birlashtirganidan so`ng onasi Tegin begim Moh sharafiga 1380 yilning bahorida Shahrisabzdagi Oqsaroy qurilishini boshladi. Bu qurilish yigirma yildan ortiqroq vaqtga cho`zilgan. Muhandisi Tabrizning qo`li gul me'morlaridan biri va naqqoshi Muhammad Yusuf edi. Harbiy yurishlari chog`ida Temur diniy masalalarga o`ta ehtiyotkorlik bilan yondashdi. Ya'ni boshqa dinlarga tazyiq o`tkazmadi.*





- 2. "Amir Temur-bizning sha'n-shavkatimiz,g`urur iftixorimizdir. Amir Temur -xalqimiz dahosining timsoli,ma'naviy qudratimiz ramzidir".
- Islom Karimov.





Oliyjanob ahloqiy fazilatlarni Amir Temur xazratlari ulug'lab-gina qolmaganlar, balki bu fazilatlarni bajaralishini davlat xududida yashayotgan fuqarolardan, hatto o'z oila a'zolari tomonidan ham so'zsiz bajarilishini talab qilganlar. «Yana tajribamdan ko'rib bildimki», - deb yozadi Amir Temur – «davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to'ra tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuxi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalong'och odamga o'xshaydi, uni ko'rgan kimsa nazarini olib qochadi. Yohud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini dini islom to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim».

➤ Amir Temur o'z tuzuklari keyingi avdlodi uchun bir qo'llanma bo'lib qolishni ko'zlab: «Farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga o'tadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lg'ay», - deb yozib qoldirgan edi. Darhaqiqat bu asardan faqat Temuriy shahzodalargina emas, ko'plab sharq hukmdorlari o'zlarining faoliyatlarida foydalanganlar va unga yuqori baho berganlar. Jumladan, Shoh Jahon (1628-1657), Qo'qon xoni Muhammad Alixon (1822-1842), Buxoro amiri Abdullahadxon (1885-1910) lar «Tuzukot»dan parchalar ko'chirtirib, ulardagi qoidalariga amal qilganlar.



- Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning tuzilishi, feodal tarqoqlikning tugatilishi, mamlakatda tinchlik va osoyishtalikning o'rnatilishi O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti yo'lida ijobiy rol o'ynadi. Mug'ullar davrida vayron bo'lgan iqtisodiyot tiklandi, hunarmandchilik va tijorat ishlari rivojlandi, fan va madaniyat ravnaq topdi, shaharlar obod bo'ldi. Eng muhimi, xalq tinch va osoyishta hayot tarziga kirdi.


Amir Temur vazirlarini tanlash ishiga g'oyat jiddiy qarar va ularni 4ta sifatga ega bo'lishlariga ahamiyat berar edi.

Bular:

- 1. aql-farosatlilik;***
- 2. toza nasllik;***
- 3. sipoxu-raiyat axvollaridan xabardorlik;***
- 4. sabr chidamlilik va tinchliksevarlik.***

Amir Temur o'z imperiyasiga qo'shib olgan mamlakatlarni idora etish uchun tayinlanadigan kishilarga qo'yiladigan talablar tizimini ham ishlab chiqdi. Bunday rahbarlar A. Temur talabiga ko'ra qo'yidagi fazilatlarga ega bo'lishi lozim bo'lgan: 1) Oliy janob tabiatli va ruhiy holatining ko'tarinkiligi; 2) Nozik aql va ziyraklik; 3) Yuksak malaka hamda xalq va qo'shinga murojaat qila bilish; 4) Sabr-toqat va odamlar bilan murosaga kelishmoq.

3. Mazkur 2010 yil 9 aprelda ulug` sarkarda, O`zbek davlatchiligi tarixining yorqin siymolaridan biri, olamga mashhur katta imperiyani tuzgan din va davlat homiysi, siyosatchi, ilm-fan, san'at, madaniyat va ma'rifat targ`ibotchisi bobomiz Amir Temur tavalludining 674-yillik muborak to`yi Respublikamizning barcha joylarida; madaniyat va ma'rifat maskanlarida, oliy va o`rta- maxsus o`quv dargohlarida, maktablarda keng ko`lamda nishonlanishiga va uning sharafiga turli xil sport musobaqalari, bayram tadbirlari o`tkazilishiga katta e'tibor beriladi. Temur va Temuriylar davridagi ilm-fan taraqqiyoti, madaniyat va maorif sarchashmalarini chuqur o`rganish va shu asosda mustaqil davlatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bugun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etayotir.






Temur davlati o`zining eng rivojlangan davrida juda o`lkan hududni o`z ichiga olgan bo`lib, O`rta Osiyodan tashqari, Eron, Ozarbayjon, Iroq va Afg`onistonni qamrab olgan. U bu davlatni o`g`illari, nabiralari va xos amirlari yordamida idora qildi. Buning uchun u saltanatni suyurhol mulklarga, ya'ni uluslarga bo`ldi.



Temur zamonida me'morchilik va obodonlashtirish ishlari ayniqsa rivoj topdi, dunyoda tengi yo`q obidalar yaratildi. Samarqandda Go`ri Amir, Ishratxona maqbaralari, Bibixonim yodgorligi, Jome masjidi, Shahrisabzdagi Oqsaroy , "Dorut Tilovat", "Ko`k Gumbaz", "Piru Murshid", "Shamsuddin Kulol" maqbaralari shular jumlasidandir. Ular juda katta boyliklar, mashaqqatli mehnatlar evaziga bunyod etilgan bo`lib, Sohibqiron harbiy yurishlarida erishgan zafarlari bilan bog`liqdir. U har bir g`alabasini birorta obida qurish bilan abadiylashtirardi. Chunonchi, Xorazmni Movarounnahrda birlashtirganidan so`ng onasi Tegin begim Moh sharafiga 1380 yilning bahorida Shahrisabzdagi Oqsaroy qurilishini boshladi. Bu qurilish yigirma yildan ortiqroq vaqtga cho`zilgan. Muhandisi Tabrizning qo`li gul me'morlaridan biri va naqqoshi Muhammad Yusuf edi. Harbiy yurishlari chog`ida Temur diniy masalalarga o`ta ehtiyotkorlik bilan yondashdi. Ya'ni boshqa dinlarga tazyiq o`tkazmadi.




Yurtimiz mustaqilligining dastlabki qadamlarida Yurtboshimiz hamda ilm-fan, san'at va adabiyot namoyondalari tomonidan ulug' sarkarda bobomiz Amir Temur shaxsiga bo'lgan hurmat va e'tibor qayta tiklanib zohiriy va botiniy jihatdan adolatli ma'naviy qiyofa va muhit yuzaga keldi.



AMIR
TEMUR

- *Temur va Temuriylar davridagi ilm-fan taraqqiyoti, madaniyat va maorif sarchashmalarini chuqur o`rganish va shu asosda mustaqil davlatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, bugun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etayotir. Zeroki, buyuk davlat arbobi, xalqimiz madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotining*





Savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik umuman hamma soha jadal rivojlanib, xalqaro miqyosga ko`tarildi. Sohobqironning sa'yi -harakati tufayli buyuk ipak yo`li yo`nalishining Turonzamin tomon burilib, uning sarhadlaridan o`tishi bu borada ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi.

XV asrning mashxur astronomi Mirzo Muxammad ibn SHOXRUX IBN TEMUR ULUG'BEK KO'RAGON

22 martda 1394 yil
Sultoniya
tug'ilgan,
Shimoliy Eron




*Vaxshiyona
o'ldirilgan 27
oktyabrda
1449 yil
Samarqand
yaqinida*

Tug'ilganida unga Muhammad Tarag'ay deb ism qo'yadilar



Amir Temurga nevarali bo'lgani haqida
xabar keltiradilar



Muhammad Tarag'ayning tug'ilgan kuni

ГООУДАРСТВО ТИМУРА В КОНЦЕ XIV—НАЧАЛЕ XV в.

■ Территория, занятая в империи Тимура
 ■ Разделенные владения
 — Покорен Тимуром в 1395—99 гг.
 — Восточная граница Тимура и Ирана, Афганистан, Армения, Грузия и в. Азия в 1395—97 гг.
 — Покор Тимура в Индии Тохтамыша в 1398 г.
 — Восточная граница Тимура в Иране, Афганистан, Армения, Грузия и в. Азия в 1395—99 гг.
 — Покорение им Рудаки и в Самарканде в 1395—96 гг.
 — Покорение Тимура в Индии Тохтамыша, Тохтамыша в 1398—99 гг.



Mirzo Ulug'bekning mo'g'ullar bilan jangdan qaytishi



Samarqand va Buxorodagi Ulug'bek madrasalari


Taniqli Olimlar



Qozizoda Rumiy



Jamshid al Koshiy




Ali qushchi






Muxammad tarag'ay taxtda





Rasadxona qurilishi



Ulug'bek rasadxonasi




Ta'mirdan keyingi tashqi ko'rinishi



Музей Мирзо Улугбека



Asrtonomik Asboblari



ЗЕМНОЙ
ШАР





АСТРОЛЯБИЯ



АРМИЛЯРНАЯ
СФЕРА

Asrtonomik Asboblari




ط	ک	خ	نظ	س	سا
61°	60°	59°	58°	57°	56°
ب	س	ک	ه	و	س
62°	61°	60°	59°	58°	57°
ط	ع	ب	د	ک	ه
63°	62°	61°	60°	59°	58°
و	ک	ط	ع	ف	
64°	63°	62°	61°	60°	

Ziji jadidi ko'ragoniy

[illegible][illegible][illegible]

Go'ri Amir



Ulug'bek haykallari



Riga





Toshkent



Samarqand

Журнал "Физика" № 3/2014. ИД "Первое сентября"

Pochta markalari va tangalar



Turkiston Kutubxonasi

М.Нуритдинов

Ҳаёт ва ҳаёт
сўраш

www.turklib.uz

БОБУРИЙЛАР ҲАҚИДА МАЪЛУМОТ

Бобурийлар — Ҳиндистонда (1526—1858) ҳукмронлик қилган сулола. Темурийлардан Заҳириддин Муҳаммад Бобур асос солган. Чет элларда, мамлакатимизда, ҳатто Ҳиндистонда ҳам Бобурни ва унинг авлодларини «буюк мўғуллар» деб аташ одат бўлиб қолган. «Буюк мўғуллар» деган ибора Чингизхон ва ундан кейинги мўғул қоонлари (Уқтой қоон, Гуюк қоон, Мунка қоон)га тааллуқли бўлиб, Бобурийлар аслида Амир Темур ва Мирзо Бобур авлодларидир. Улар тарихий ҳужжатларда ўзларини «бобурий мирзолар» деб юритишган. В. В. Бартольд дунёда тарқалган «буюк мўғуллар» иборасининг хато эканлигини кўрсатиб, «Европаликлар Темурни ва унинг ўғиллари ҳамда набираларини мўғуллардан тарқалган деб ҳисоблаб, (Бобур) салтанати учун «буюк мўғуллар» деган ном тўқидилар», деб ёзади. Бу ибора эса Европадан Ҳиндистонга «кўчиб» келиб, ҳиндлар орасига инглизча китоблар воситаси б-н тарқалгандир. Сўнгги йилларда «буюк мўғуллар» деган хато ибора ўрнига «бобурийлар» ибораси қўлланила бошладики, бу ибора тарихий ҳақиқатни тўғри акс эттиради. Бобурийлар Ҳиндистонда 332 й. ҳукмронлик қилдилар.






- **Бобурий ҳукмдорлар**

932-1274/1526-1858

- 932/1526 Заҳируддин Бобур
- 937/1530 Носируддин Ҳумойун
- 947-962/1540-1555 Деҳлининг Сурий султонлари
- 962/1555 Ҳумойун (иккинчи марта)
- 963/1556 Жалолуддин Акбар
- 1014/1605 Нуруддин Жаҳонгир
- 1037/1627 Довар Бахш
- 1037/1628 Ҳишобуддин Шоҳ Жаҳон I
- 1068/1657 Мурад Бахш (Гужаротда)
- 1068/1657 Шоҳ Шужо (Бенгалияда 1070/1660 йилгача)
- 1068/1567 Муҳйинуддин Аврангзеб Оламгир I
- 1118/1707 Азамшоҳ
- 1119/1707 Ком Бахш (Даканда)
- 1119/1707 Шоҳ Олам I Баҳодуршоҳ I
- 1124/1712 Азиму-ш-Шон
- 1124/1712 Муиззуддин Жаҳондор
- 1124/1713 Фаррух Сийар
- 1131/1719 Шамсуддин Рафиу-д-Даражот
- 1131/1719 Рафиу-д-давла Шоҳ Жаҳон II
- 1131/1719 Нигу Сийар
- 1131/1719 Носируддин Муҳаммад
- 1161/1748 Аҳмадшоҳ Баҳодур
- 1167/1754 Азизуддин Оламгир II
- 1173/1760 Шоҳ Жаҳон III
- 1173/1760 Жалолуддин Алий Жавҳар Шоҳ Олам II
- 1202/1788 Бидорбахт
- 1203/1788 Шоҳ Олам II (иккинчи марта)
- 1221/1806 Муинуддин Акбар II
- 1253-1274/1837 Сирожуддин Баҳодуршоҳ II
- Инглизларнинг бевосита бошқаруви





• ШОҲ ЖАҲОН

- Туғилганда Хуррам исми берилган Шоҳ Жаҳон 1592 йилнинг 5 январида Лаҳорда дунёга келган.Отаси Ҳиндистонда ҳукмронлик қилган Бобурий шаҳзодалардан учинчиси — Жаҳонгиршоҳ (Салим, 1569—1627), онаси ражпутлар сулоласи вакили малика Манмати эди.

Шаҳзода Хуррам ёшлигида қадди-қомати жуда келишган, ақлу одобда бошқаларга намуна бўладиган, шу билан бирга шон-шухратга интилувчан серғайрат йигит бўлганидан, бобоси Акбаршоҳнинг суюкли набираси ҳисобланарди. Шу ўринда, мухтасар тарзда Акбаршоҳ ҳақида гапирсак. Қайси динда бўлишларидан қатъи назар ҳиндистонликларнинг аксари Акбар Шоҳнинг буюк ҳукмдор бўлганини таъкидлашади. Бобур ва Акбаршоҳнинг Ҳиндистон тарихидаги ўрни ҳақида Жавоҳарлал Нерунинг этиборли фикри мавжуд (Бу хусусда [мана саҳифада ўқишингиз мумкин](#)).



ТОЖ МАҲАЛ

- Бобурийлар салтанатининг пойтахти бўлган Агра шаҳри яқинида, Жамна дарёси бўйида жойлашган Тожмаҳал мажмуаси ишқ рамзига айланган.
Шоҳ Бобур невараси Шоҳ Жаҳоннинг суюкли аёли Мумтозмаҳал ўн тўртинчи фарзандига кўзи ёришаётган чоғида вафот этади. Шоҳ Жаҳон суюкли рафиқаси васиятини бажо келтириб, Тожмаҳал мақбарасини барпо этади.

Тож Маҳал ҳақида 6 факт:

1. Обиданинг умумий баландлиги 74 метрни ташкил этади.

2.

Мақбара лаҳорлик Усто Аҳмад ҳамда турк меъмори Муҳаммад Исохон афанди бошчилигида қурилган.

3. Ёдгорликнинг тўрт томонида жойлашган тўртта минорадан ҳар бирининг баландлиги 45 метрни ташкил этади.

4. Маликанинг қабри устидаги қора мамрмар Шри-Ланкадан келтириб ўрнатилган.

5. Мақбаранинг олд томонида икки қатор даорахт экилган ва фавворали ҳовуз барпо этилган.

6. Тожмаҳал қурилган Агра шаҳри Деҳлидан 200 километр узоқликда жойлашган.

7. Мақбарага учта – шарқий, жанубий ва ғарбий дарвозалар орқали кирилади.



• 14 февраль – Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллуд топган кун

Президентимиз Ислом Каримов раҳнамолигида буюк аجدодларимиз меросини чуқур ўрганиш, асарларида илгари сурилган эзгу ғояларни кенг тарғиб этишга алоҳида эътибор қаратилаётир.

Ўзбек мумтоз адабиётининг буюк намояндаларидан бири Заҳириддин Муҳаммад Бобур шеърляти ҳам неча асрлардан бери барҳаёт яшаб келаётган ана шундай маънавий хазиналардан биридир. Бобур ғазаллари асосида яратилган қўшиқлар санъатимиз ва тафаккуримизни бойитишга хизмат қилмоқда. “Бобурнома” эса ўз даврининг қомусий манзараларини акс эттирган ноёб ёзма обидадир.



مجدد پد که بد در زمین برکت
بدید اندران دشت چندان سپاه
نهاد و گمان از یقین بر گشت
که کم کرد در کرد خورشید راه
ممه دید نهاسر اسیر
زمین خاک با خون بر آغ
بسی نابجا و رزمین بنگرید
ممه دشت خاور پراز گشته دید

ممی گشت حیدر بدان رزمگاه
زهر سو بد و روی کرده سپاه
ز خارا بپولاد خون میچکاند
تن کوه در موج خون

سمی است چیدر بدان رزمگاه	زهر سوبد و روی کرده پیا	ز خارا بپولاد خون میچکاند	تن کوه در موج خون
--------------------------	-------------------------	---------------------------	-------------------



Saiyod.com













- 
- Ҳар кимки вафо қилса, вафо топқисидур,
Ҳар кимки жафо қилса, жафо топқисидур,
Яхши киши кўрмагай ёмонлиғ ҳаргиз,
Ҳар кимки ёмон бўлса, жазо топқисидур.
 - * * *
 - Ёд этмас эмиш кишини меҳнатга киши,
Шод этмас эмиш кўнгулни ғурбатга киши.
Кўнглум бу ғарибликта шод ўлмади ҳеч,
Ғурбатга севунмас эмиш, албатта, киши.



► Xulosa.

- Qadimiy Turkistonu Turonzaminning buyuk farzandi Temur tarix sahnasiga kelgach, qariyb bir yarim asrlik mug`ullar hukmronligi va feodal tarqoqlikka barham berib, o`zining qudratli imperiyasini vujudga keltirdi. Uning davlati ijtimoiy -siyosiy jarayonda juda tez ko`zga tashlandi. Eng muhimi osoyishtalik o`rnatilib katta sarhadda yangi bir rivojlanish davri boshlandi. Temur davlati tarixiga butun jahon jiddiy e'tibor berayotganligining sababi ham shundadir.

- 
- Birinchidan, Mustaqil O'zbekiston taraqqiyot yo'lida olg'a qadamlar bilan borar ekan, bunda uchragan har xil qiyinchiliklarni yengib, muvaffaqiyatlarga erishganda beixtiyor qadimiy xalqimiz bosib o'tgan shonli, tarix zarvaraqlariga bitilgan o'tmishimizning yorqin sahifalaridan o'rin olgan o'zbek davlatchiligining Amir Temur davrini eslab, o'zimizning kim ekanligimizni va ajdodlarimizga munosib voris bo'layotganimizdan faxr hissini tuyamiz



- Ikkinchidan Xalqimiz doimo ma'naviy jasorat hissi bilan yashagan va bu ulug' tuyg'u uning hayotida yillar, asrlar o'tgani sayin tobora kuchayib, yuksalib bormoqda. Chunki xalq ma'naviyati shunday bir buyuk ummonki, har qaysi avlod undan kuch-qudrat, g'ayrat va ilhom olib, o'zining naqadar ulkan ishlarga qodir ekanini namoyon etadi.

- Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 205-b.

-

- Uchinchidan, Ma'rifatli Movarounnahr ruhi, temuriylar davrida fan va san'atning gullab-yashnagani Yevropada uyg'onish jarayoniga hayotbaxsh ta'sir etganini, umumjahon taraqqiyotiga ko'maklashganini anglab faxrlanamiz. "Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o'ylab ish qilish qurol kuchidan ko'ra o'n baravar foydaliroqdir", degan dono so'zlar Amir Temurga mansubdir. Bu so'zlar hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo'li bilan hal qilishni bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- ▶ I.A.Karimov. «Ijobiy ishlarimizni oxiriga yetkazaylik». T.: O'zb, 1994 y.
- ▶ I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997 yil
- ▶ Ibn Xalmiqon haqida. Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» kitobidan olindi. T. Abdulla Qodiriy nomidagi Xlaq merosi nashiriyoti,
- ▶ Abu Nasr Forobiy. Risolalar. Mas'ul muharrir O'zbekiston respublikasi FA haqiqiy a'zosi M.M.Xayrullaev. T. «FAN», 1975.
- ▶ "Temur tuzuklari", Toshkent. "O'zbekiston"-2011-yil.
- ▶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent. "Ozbekiston", 2012-y.
- ▶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat.
- ▶ Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T. O'zbekiston.
- ▶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat..
- ▶ Azamat Ziyo. "O'zbek davlatchiligi tarixi". Toshkent, "Sharq", 2000-yil.
- ▶ Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1992,
- ▶ "Temur tuzuklari", Toshkent. "O'zbekiston"-2011-yil.
- ▶ Б.А. Ахмедов, Р.Ф. Мукминова, Г.А. Пугаченкова. Амир Темур. Жизнь и общественно-политическая деятельность. Ташкент. «Университет» 1999.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT

